

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O'zbek filologiyasi fakulteti

O'zbek adabiyoti tarixi kafedrası

“O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: “Boburnoma”da Bobur oilasi haqida.

Bajaruvchi

Eshboyeva B

Ilmiy rahbar o'qit.N.Muhiddinova

Kurs ishi O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasining ...-yil ...-apreldagi ... -son
yig'ilishida himoyaga tavsiya etildi. (ro'yxat raqami № ...)

Kurs ishiga _____ reyting bali qo'yildi.

Komissiya raisi

prof.D.Salohiy

Komissiya a'zolari:

dots. S.Tohirov

dots. G.Xoliqulova

“Boburnoma”da Bobur oilasi haqida.

Reja:

I. Kirish. Bobur hayoti ijodi haqida.

II. Asosiy qism.

1. “Boburnoma” asari haqida.

2. Asardagi Umarshayx Mirzo va Qurlug’ Nigorxonim shaxslari ta’rifi.

3. Boburnoma”da Bobur avlodlari ta’rifi.

III. Xulosa.

IV. Foydalanilgan adabyotlar.

“Biz Bobur Mirzoni ulkan davlat arbobi sifatidagina emas, qomusiy alloma, mumtoz shoir sifatida ham cheksiz qadrlaymiz. Bobur o`zbek xalqining buyuk farzandi, milliy g`ururidir”.

Islom Karimov.

Z.M.Bobur O`rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she`riyatida o`ziga xos o`rin egallagan adib, shoir, olim bo`lishi bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. U 1483-yil 14-fevralda Andijonda Farg`ona usuli hokimi Umarshayx Mirzo oilasida dunyoga kelgan. Barcha temuriy shohzodalar singari otasi saroyida tahsil oladi. 12 yoshida shiddatli saroy kurashlari girdobida qolib, biron-bir madrasani ham tugatishga imkon va fursati bo`lmasa-da, adabiyot, nafis san`atining chinakam shaydosi bo`lib yetishadi. Andijon taxti uchun ukasi Jaxongir Mirzo, amakasi Sulton Ahmad Mirzo, tog`asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashadi. Samarqand taxti uchun bir necha yil shiddatli janglar olib boradi, ammo samarasiz kechgan bu janglardan keyin Bobur janubga qarab yo`l oladi. 1503-yilda Qobul va G`aznani jangsiz qo`lga kiritadi. 1505-1515-yillarda bir necha bor Markaziy Osiyoga qaytishga urinib ko`radi, ammo hech qanday natijaga erisha olmaydi. 1519-1525-yillarda Hindistonni qo`lga kiritish uchun jang olib boradi. 1526-yilning aprel oyida Ponopatda Hindiston sultoni Ibrohim Lo`di bilan va 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo`lgan janglarda Boburning qo`li baland keladi. Tarixiy ma`lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo`lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo`llaganlar va Sikri jangidagi bu g`alaba Boburga Hindistonga o`z hukmronligini uzil-kesil o`rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Yangi mustahkam davlat “Buyuk mug`ul imperiyasi” nomini oladi va 300 yildan ortiq hukmronlik qiladi. 1526-yilning 21-dekabrida Bobur zaharlanadi, tasodif tufayli omon qoladi. 1530-yilda Agrada vafot

etadi. Keyinroq vasiyatiga ko'ra, farzandlari uning xokini Qobulga olib kelib, dafn etadilar.

Bobur qisqa vaqt ichida Hindistonda siyosiy muhitini barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini obodonlashtirib, birlashtirish, savdo-sotiq ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, bog'-rog'lar yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Madaniy yodgorliklar qurish, karvonsaroylar barpo qilish, kutubxonalar qurish Bobur va uning o'g'illari davrida keng miqyosda yoyildi. Hindiston me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubi kirib kela boshladi. Bobur va uning hukmron avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslarini mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga keldi.

Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi. 1503-yilda "Xatti Boburiy" ni yaratdi. 1521-yilda "Mubayyin al-zakat", 1523-25-yillarda "Muxtasar", "Xarb ishi", "Musiqqa ilmi" (topilma), "Validiyya" asarlarini, 1519-yilda 1-devon "Qobul devoni" ni, 1528-29-yillarda 2-devon "Hind devoni" ni yaratdi. "Tuzuki Boburiy", "Voqeoti Boburiy", "Voqeanoma", "Boburnoma" nomlari bilan mashhur bo'lgan asarni 1525-1530-yillarda yozdi.

Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o'rganish va ommalashtirishda O'zbekiston, Tojikiston va Rossiya olimlarining faoliyatlari diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N.Ilminskiy, O.Senkovskiy, M.Sale, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V.Zohidov, Ya.G'ulomov, R.Nabiyev, S.Azimjonova, A.Qayumov kabi olimlarning harakatlari tufayli "Boburnoma" bir necha bor nashr qilindi. (o'zbek va rus tillarida).

Bobur ikki tilda –o'zbek va forsiy tillarida erkin ijod qilgan bo'lsa-da, faqat o'zbekcha she'rlarini to'plab 2 ta devon tuzgan. 1519-yilda Qobulda, 1529-yilda Hindistonda tuzilgan bu devonlar o'sha joylar nomi bilan yuritiladi. Qobul devoni topilmagan. Hind devonidagi she'rlarining umumiy miqdori 400 dan ortiq. 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy, boshqalari turli janrdagi she'rlardir. Bobur

she`rlarining ma`lum bir qismi hasbi hol xususiyatiga ega bo`lgan g`azaldir. Bobur g`azallari orasida hayotga qaynoq mehr aks etgan, jo`shqin g`azallar, afsusnadoomat ohanglari bilan to`lgan g`azallarni ham uchratish mumkin.

Bobur –podshoh, shoir va olim. Ammo Boburning betimsol shaxsi shohlik, balki shoirlik va olimlikdan ham teranroqda turadi. Shuning uchun uning latif ruhi va darveshvash ko`ngli andak-mundak narsalarni pisand qilmaydi, aniqrog`i arzitmaydi. Shunday ekan, qaysi xon yoki sulton:

Qilmoq umidu biym ila xizmat shah olida

Darbonining so`kunchu tayoqig`a arzimas, -

deydi.. Insonga xos qanaqa tabiiy fazilat va sof tuyg`ular bo`lsa, Bobur hayotda ham, ijodda ham asosan ana shularga suyangan. U o`z davlati va saltanati manfaati yuzasidan she`riyatiga bir siyosiy rang, targ`ibot ohanglarini olib kirs bo`lardi. Yo`q Bobur she`riyatida topolmaysiz bunday ohanglarni.

Mohiyatan toju taxt, hukmronlikka borib tarqaladigan murod-maqсадlarini ham u nihoyatda oddiylashtirib, oddiy odamlarning yuragiga uyg`unlashib ketadigan mazmunda aks ettiradi:

Ko`ngli tilagan murodig`a yetsa kishi

Yo barcha murodlarni tark etsa kishi,

Bu ikki ish muyassar o`lmasa olamda,

Boshni olib bir sorig`a ketsa kishi.

Bu fikrlar aynan shoh va shoir Boburga tegishli ekanini bilamiz, ammo ko`ngli bir murodga intilib, yetolmagan, “bu ikki ish muyassar” bo`lmasa-da, boshini olib qayonlargadir ketishning ham uddasidan chiqolmagan har bir kishiga daxldorligini ham inkor etolmaymiz. Shuning uchun Boburning ma`naviy-ruhiy dunyosi shohu gadoni o`ziga jalb etaveradi. Ko`ngilni sehrlash, ruhni qanoatlantirishdan to`xtamaydi.

Bobur tasavvuf ta'limoti bilan maxsus shug'ullanmagan bo'lsa-da, ayrim she'rlarida tasavvufiy g'oyalar aks etgan. Shoirning quyidagi she'rlarida dunyoi dundan chekinayotgan, siyrati darveshvasht, Bobur bilan yuzma-yuz kelganday bo'lamiz:

Arzimas g'am yemakka bu dunyo,

Bal otin demakka bu dunyo.

Xotiringdin chiqar bu dun yodin.

Davlat uchun o'zungni zor etma,



Bobur ruboiylaridan birida “Har ishniki ayladim xatolig` bo`ldi”, - deydi. Aslida Bobur qilgan ishlar xato bo`lmagan. Birgina “Boburnoma” asarini olib qaraydigan bo`lsak ham hali bu darajada har tomonlama yetuk asar yaratilmaganligining guvohi bo`lamiz. Bu asar butun jahon ommasiga mashhur bo`lgan shoh asardir. “Boburnoma” da Bobur yashagan davrdagi Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar uch qismdan iborat bo`lib, 1-qismi- XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro`y bergan voqealarga, 2-qismi XV asrning oxiri, XVI asrning birinchi yarmida Qobulda ro`y bergan voqealarga, 3-qismi XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag`ishlangan. “Boburnoma” ning mavjud to`liq matni 1857-yilda turkolog N.Ilminskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo`li bilan nashr qilingan. 1905-yilda ingliz olimasi A.Beverigi xonim “Boburnoma” ning Haydaroboddagi qo`lyozma nusxasini chop ettirdi. Ana shu 2 ta nusxaga asoslanib 1948-49-yillarda asarning ikki qismdan iborat to`liq matni P.Shamsiyev, Sodiq Mirzayevlar tomonidan nashr qilindi. 1960-1989-yillarda yana qayta nashr etildi. “Boburnoma” dagi ma`lumotlar o`sha davrda yaratilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Allomiy kabi tarixchilarning asarlarida bu darajada oshiq va mukammal yoritilmagan. Muallif “Boburnoma” da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Mirzo Ulug`bek va boshqa allomalar haqida o`zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va san`at arboblari haqida qimmatli ma`lumotlar va mulohazalarni keltiradi.

"Boburnoma" muallifning o'ziga xos tarjimai holi, aqlini tanigandan boshlab umrining oxirigacha kechgan hayoti solnomasidir. Muhimi, asarda eng og'ir damlarda ham o'zining tanti, jo'mard, mehribon insoniy fazilatlarini saqlab qola olgan muallif timsoli turadi. Bobur vatanigamuhabbatini hayotining so'ngigacha asraydi. 1528- yili Bobur Andijonga, Xo'jakalonga yozadi: "Bizni ehtimomimiz ol sorilar bormoqqa behad va beg'oyatdir. Hinduston ishlari ham bir nav' somon topib keladi... Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutmay... Bu

fursatta bir qovun keltirib erdilar, kesib yegach, g'arib ta'sir qildi, tamom yig'lab yedim". Bobur asarida ota va o'g'il, shoh va shahzoda munosabatlariga ham befarq qaramagan. Taxtni egallash uchun Ulug'bekday donishmand otani qatl qildirgan Abdullatifni qattiq qoralaydi. Boburning o'zi esa farzandlariga ham mehribonlik va ham talabchanlikning ajoyib namunalarini ko'rsatadi. Chunonchi, 1528- yili Humoyun o'g'il ko'rganida, Bobur farzandini tabriklaydi. Murabbiy va ustoz sifatida unga otalik nasihatlarini beradi. Humoyunga xatlaridagi imlo xatolaridan tortib, yurish-turishigacha yo'l ko'rsatib, mehribonlik qiladi: "...xatlaringda yolg'uzluq, yolg'uzluqim debsen, podshohliqta aybdur... Podshohliq bila yolg'uzluq rost kelmas... Xatingni xud tashvish bila o'qisa bo'ladur vale asru mug'laqtur ... Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas. Iltifotni "to" bilan bitibsen, Qulunjni "yo" bilan bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qisa bo'ladur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mahfum bo'lmaydur... Takalluf qilay deysen, ol jihattin mug'laq bo'ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham sanga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qug'uchig'a". 1529- yili Humoyun kasal bo'lganida, uni Badaxshondan Dehliga, Bobur yoniga yuboradilar. "Boburnoma"da yoziladi: "...tabiblar har necha doru-darmon berdilar, yaxshi bo'lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug' kishi erdi, arzg'a yetkurdikim, ushmundoq dardlarg'a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri taolo sihat bergay. Mening ko'nglumba keldikim, Muhammad Humoyunningmenden o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q. Men o'zum tasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa, o'zga muqarrablardin arzg'a tegurdilarkim, MuhammadHumoyun sihat topar, siz bu so'zi nechun tilingizga kelturasiz. G'araz budurkim, dunyo molidin yaxshisi tasadduq qilmoq kerak. Bas, o'shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub erdi, Muhammad Humoyunga inoyat qilib erdingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning evazig'anechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkul bo'lubtur. Va andin o'tubturkim, men aning betoqatlig'ig'a toqat kelturg'aymen. O'shal holatga kirib, uch qatla boshidin o'rgulub, dedimkim, men ko'tardim, har ne darding bor. O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lub qopti. Men noxush bo'lub yiqildim. A'yon davlat va arkoni mamlakatni chorlab, bay'at

qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasb qildim. Va taxtni anga topshurdum".

Bobur tirikligida taxtni vorisiga topshirgan kamdan-kam hukmdorlar sirasidan edi. Bobur nima haqda va kim haqda yozmasin, g'oyat samimiydir. O'zining quvonchini ham, g'amini ham hech kimdan yashirmay, ro'y-rost aytadi. Do'sti haqida ham, dushmani haqida ham ko'nglidagini so'zlaydi.

Bobur butun umri jangu jadallarda kechishiga qaramasdan tabiatan nihoyatda ziyrak va sinchkov, g'oyat fahmli va idrokli, hamma narsaga qiziquvchan bir zot edi. U qaerga bormasin, o'sha yerning geografik tuzilishi, joylashishi o'rindan tortib, o'simlik va hayvonot dunyosigacha, qishu yozining ob-havosidan, elining tili-yu, urf-odatlarigacha hamma-hammasi bilan qiziqadi va yozib qoldiradi.

"Boburnoma" da Boburning ilk she'riy mashqlaridan tortib yirik asarlarigacha yozilish tarixi, ular bilan bog'liq voqealar haqida ma'lumot berilgan. Alisher Navoiy bilan xatlashgani, "Boburiy xat" ni ixtiro etgani, musiqa bilan shug'ullangani, turkiy tilning sofligi va ravnaqi uchun kurashganlari haqida ham batafsil ma'lumot beradi.

"Boburnoma" asari haqida. "Boburnoma" Bobur kezgan yurtlar haqida o'ziga xos qomusdir. Lekin bu faqat sinchkov emas, badiiy zavqi ham baland bo'lgan ijodkor tomonidan yozilgan. Asarda turli fanlarga oid ma'lumotlar bilan bir qatorda go'zal ijodiy kuzatishlar, chiroyli badiiy lavhalar ham bor. Ayniqsa, Xuroson va Hindiston manzaralarini chizganda, xususan, o'zbek o'quvchisiga notanish urf-odatlar, o'simlik va hayvonlar haqida hikoya qilganda Boburning badiiy iste'dodi ish beradi. Masalan, u xurmoni shunday tushuntiradi:

"Yana xurmodir. Agarchi xurmo Hindiston maxsusi emas. Chun ul viloyatlarda yo'q edi, mazkur bo'ldi. Xurmo daraxti Lamg'onda ham bordur, shoxlari daraxt kallasida bir yerda-o'q bo'lur. Barglari shoxlarining tubidin uchig'acha ikki tarafida bo'lur, tanasi nohamvor (notekis) va badrang (ko'rimsiz) dir. Mevasi uzumning xo'shasidek bo'lur, xo'shasidin xili ulug'roq bo'lur.

Derlarkim, nabotat orasida xurmo daraxtining ikki ishi hayvonotqa o`xshar: biri ulkim, nechukkim hayvonot boshini kesarlar-hayoti munqati` bo`lur (uzilur). Xurmo daraxtining ham boshi kesilsa, daraxti qurur. Yana biri ulkim, nechukkim hayvonottin benar natija hosil bo`lmas, xurmo daraxtig`a ham nar xurmo shoxini kelturub, tegurmasalar, yaxshi bar bermas. Bu so`zning haqiqati ma`lum ermas”.

“Boburnoma” o`zbek nasri taraqqiyotiga juda katta ta`sir ko`rsatdi. Buning yorqin namunasi Abulg`ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” va “Shajarai takorima” asarlaridir. “Boburnoma”ning tasvir va bayon usuli tarjimalar orqali boshqa adabiyotga ham o`tdi. G`arb va Sharqning fan va davlat arboblari Boburning tarix va madaniyat oldidagi xizmatlarini belgilashda bu kitobga asosiy manba sifatida qaradilar. Hindiston tarixini yoritishda esa, mutaxassislar fikricha, hali xam buyuk bobomiz Beruniyning “Hindiston” idan keyingi muhim asar “Boburnoma” bo`lib turibdi. “Boburnoma” XV–XVI asrning muhim voqealarini badiiy aks ettirgan prozaning qimmatli namunasi.

“Boburnoma” qomusiy xarakterdagi asar bo`lib, unda ilm – fan, urf – odat, ijtimoiy – siyosiy, tabiiy etnografik bilimlar mohirlik bilan ifodalangan. Shu bilan birga bu asar o`zbek klassik adabiyotida badiiy prozaning ham namunasi. “Boburnoma” fanning qator sohalari uchun nihoyat darajada muhim ahamiyatga ega bo`lishi bilan birga o`zbek adabiyoti tarixida badiiy prozaning eng birinchi buyuk namunasi ham hisoblanadi. Bu asar adabiyotimizda proza janrini rivojlantirishga uzoq vaqt ijobiy ta`sir etib keldi.

“Boburnoma”da, aytish mumkinki, 5 yoshlarida Samarqandga borgan yosh Zahiriddinning umrining oxirgi yillarigacha o`z boshidan o`tgan voqealari, ko`rgan – kechirganlari, o`zi bilan jangu jadallarda birga bo`lgan kishilar, o`z ko`zi bilan ko`rgan shahar va qishloqlar, o`zi suhbatlasha olmagan, lekin madaniy – siyosiy hayotda katta iz qoldirgan **Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayin Boyqaro** va boshqalar, hamda qarindosh – urug`, oila a`zolari, o`zi haqidagi ma`lumotlar haqqoniyat bilan tasvirlangan.

“Boburnoma” ning umumiy mazmuni va unda aks ettirilgan voqealar haqida ingliz olimi Elfiniston quyidagi samimiy soʻzlarini yozadi: “Bu memuarlarda buyuk turk podshosining hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his – tuygʻulari har qanday mubolagʻadan, pardadan holi, uning uslubi oddiy va mardona, shuningdek, jonli va obrazli, oʻz zamondoshlarining qiyofalarini, intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan u, Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir. Bobir har bir odamning tashqi koʻrinishini, kiyimini, taʼbini va odatini ifoda qiladi va mamlakatlarni, ularning iqlimini, tabiatini, xoʻjaligini, sanʼat va hunarmandchilik asarlarini tasvirlab beradi. Lekin asarga muallifning xarakteri eng koʻp joziba bagʻishlaydi”.

“Boburnoma”da Zahiriddin Boburning uzoq yillik kuzatishlari memuar – xotira koʻrinishida izchillik bilan tasvirlanadi. Shu bilan birga ayrim yillarning voqealari nomaʼlum sabablarga koʻra “Boburnoma” da berilmagan. Shunday boʻlishiga qaramasdan “Boburnoma” da 12 yoshdan taxtga chiqib, Andijon, Samarqand, Afgʻoniston, Hindistonda oʻz boshidan kechirgan, oʻz koʻzi bilan koʻrgan minglab voqea – hodisalarning eng muhimlari haqida qiziqarli maʼlumot bergan.

“Boburnoma”dagi bayon tartib bilan, avvalo u yoki bu shaharning tabiiy – geografik tasviri, oʻsha yerning hukmdori, uning tashqi qiyofasi, maʼnaviy dunyosi, avlod – ajdodlari, ziyolilari, amir – beklari haqida maʼlumot berish yoʻli bilan boradi. Soʻngra oʻsha joyning urugʻ – elatlari, til, urf – odat va boshqa xususiyatlarini tasvirlaydi. Shu jihatdan “Boburnoma” dagi maʼlumotlar Oʻrta asrdagi bir qator oʻlka, shahar va mamlakatlar tarixini oʻrganishda ham qimmatli manba boʻlib xizmat qiladi. Chunonchi, Bobur 1497 – 1498 yillarda Samarqand shahri va viloyati muyassar va musaxxar boʻldi deb, shahar va uning tabiiy – geografik holatini shunday tasvirlaydi: “Rubʼi maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Samarqandni Iskandar bino qilgʻondur. Moʻgʻul va turk ulusi Semirkand derlar. **Temurbek** poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulugʻ podshoh Samarqandni poytaxt qilgʻon emastur. Eli tamom sunniy...Koʻhak suyi bila maʼmur va

mazru'dur. Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami' mevasi xo'b bo'lur. Qishi mahkam sovuqtur...yozlar yaxshi havosi bor...

Temurbek va Ulug'bek Mirzoning imorati va bog'oti Samarqand mahallotida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt oshyonliq, Ko'k saroyga mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur. Samarqandning sharqida ikki bog' solibtur, birikim yiroqroqtur, bog'i Bo'ldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. Andin Feruza darvozasig'acha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig'ochlari ekturubtur. Dilkushodda ham ulug' ko'shk soldurubtur, ul ko'shka Temurbekning Hindiston urushini tasvir qilibturlar. Yana Pushtai Ko'xakning domanasida Kongilning qora suyining ustidakim, bu suvni Obirahmat derlar, bir bog' solibtur. Naqshi jahong'a mavsum"...("Boburnoma")

Bobur Samarqand haqida yozar ekan, bu yerda shuhrat topgan Shayx Abu Mansur, Sahihi Buxoriy "Xoja Ismoil Xartanak, sohibi "Xidoya" kim Imom Abu Xanifa mazhabida "Hidoya" din mo'tabarroq kitobi fiqh kam bo'lg'oy, Farg'onaning Marg'inon otliq viloyatindur", deb bir qator olim, din arboblari, huquq ilmining namoyandalari, Ulug'bek Mirzoning Ko'hakdagi rasadxonasi va u tuzgan "Ziji Ko'ragoniy", Xoja Nasr Tusiy tomonidan Marog'a rasadxonasida bitilgan "Zichi Elxoniy", Samarqandning olamga mashhur yaxshi qog'ozlari haqida atroflicha ma'lumot beradi.

"Boburnoma" ning yana bir muhim fazilati tarixiy fakt va xodisalarni beg'araz, xolisona izchillik bilan tasvirlashda ko'rinadi. "Boburnoma"da Boburning o'zi asarning markazida turishiga qaramasdan, uning xatti – harakatlari asosan haqqoniy tasvirlanganligini ko'ramiz. Ko'pchilik tarixiy-memuar xarakterdagi asarlar tumtaroq, jimjimador uslubda yozilgan bo'lsa, Bobur sodda, ravon yozish namunasini ko'rsatdi. Bu jihatdan o'g'li Humoyun mirzoga yozgan nasihatimiz maktubi xarakterlidir. Hatto Bobur o'zining poetik asarlarida ham qisqa va sodda uslubda fikr bayon qilishga intilgan. Jumladan, masnaviylardan birida bunday yozadi:

Uzatma muncha ham Bobur so'zingni,

Bu so'zlar birla xor etma o'zingni.

Agarchi ko'p so'zing bor muxtasar qil,

Ul oyg'a so'zing aslidin xabar qil.

“Boburnoma”ning qimmatli tomonlaridan biri unda o'z davrining juda ko'p tarixiy shaxslarning xatti – harakatlari, ijtimoiy – siyosiy qiyofalarini yorqin tasvirlashda ko'rinadi. Bu tarixiy shaxslarning aksariyat ko'pchiligi temuriylar xonadoniga mansub amir-beklar, shayboniylar, shu davrda ijtimoiy-siyosiy hayotda katta mavqega ega bo'lgan sarkarda va ruhoniylar hamda juda ko'p san'at va adabiyot namoyandalaridir

“Boburnoma”da Umarshayx mirzo, Husayn Boyqaro kabilarning qiyofasi, nasl-nasabi, amir-umarolari, shajarasi batafsil tasvirlangan. Bobir tasviriy vositalar orqali bu tarixiy siymolarning yaxlit qiyofalarini aniq tasavvur qilish, hatto mukammal portretlarni chizish mumkin.

“Boburnoma” 1526- yil voqealari bayon etiladi. Chunki shun yili Bobur Ponipat degan yerda Hind sultoni Ibrohim Lo'diy bilan to'qnashib uni yengadi. Ibrohim shu urushda o'ldiriladi. Hindning bosh shahri Dehli Boburshoh qo'liga o'tadi. Hindning turli o'lkalarini boshqarib turgan hind roylari va rojalari birin-ketin Boburga bo'ysunib , uning hokimyatini tan ola boshlaydilar. Boburga bo'ysunishni istamaganlar esa Chetur o'lkasining Ronosi Sango tevaragida uyushadilar. Boburning shundan keying kurashi ana su yerda bo'lib o'tadi. Bobur o'z asarida Rono bilan bo'lgan jangni alohida ta'riflar bilan ba'yon etadi. U urush oldidan urush qatnashchilarining katfiyati qanday holatda bo'lganligini yetarlicha tasvirlaydi. Bu urushda Bobur kuchli to'qnashuvga duch keladi. “Boburnoma”da muallifning boshidan kechirgan jangu- jadallari birin ketin xronotop tarzida bayon etiladi. Bobur asarni yozishdan avval urushlarning yillarini alohida bitiklar tarzida yozib boravergan va ulardan foydalangan holda asarni to'liq matnini yozgan. Ammo asarni nashr ettirgan ba'zi olimlar Boburning yozishga ulgurmay qolgan

asar qismi deb tushunganlar. “Boburnoma” asari yuzasida hali- hamon tortishuvlar davom etmoqda.¹

“Boburnoma”da Umarshayx Mirzo va Qutlug’ Nigorxonim shaxslari ta’rifi. “Chun Umarshayx mirzo baland himmatliq va ulug’ doiyalik podshoh erdi. Hamisha mulkgirlik dag’dag’dasi bor erdi, necha navbat Samarqand ustiga cherik tortti ba’zi maxal shikast topti, ba’zi maxal bemurod Necha navbat qayin otasi Yunusxonnikim Chingizxonning ikkinchi o’g’li Chig’atoyxon naslidindur Chig’atoyxonning yurtida mo’g’ul ulusining xoni ul fursatta ul erdikim mening ulug’ otam bo’lg’ay istid’o qilib kelturdi har qatla kelturganda viloyatlar berur edi, Chun Umarshayx mirzoning badmaoshlig’idin gohi mo’g’ul ulusining muxolafatidin viloyatda tura olmay yana Mo’g’ulistong’a chiqar erdi.

Oxir navbat kelaturgandakim ul fursatda Toshkent viloyati Umarshayx mirzo tasarrufida edikim, kitoblarda Shosh bitirlar ba’zi Choch bitirlarkim , “kamoni chochiy” andin iborattur berdi. O’shal fursatin tarix to’qqiz yuz sakkizgacha Toshqand va Shoxruxiya viloyati Chig’atoy xonlarining tasarrufida edi. Bu fursatda mo’g’ul ulusining xon va sultonlig’i Yunusxonning ulug’o’g’li –mening tog’oyim Sulton Maxmudxon chun Umarshayx mirzoning badmaoshlig’idan mutazarrir edilar, bir- birlari bila ittifoq qilib Sulton Axmad mirzo va shimol tarafidin Sulton Maxmudxon Umarshayx mirzoning ustig’a cherik torttilar.

Bu asnoda g’arib voqea dast berdi, mazkur bo’lib edikim Axsi qo’rg’oni balan jar ustida voqe’ bo’libtur, imoratlar jar yoqasida erdi. Ushbu tarida dushanba kuni ramazon oyining to’rtida Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchib shunqor bo’ldi. O’ttiz to’qqiz yoshar erdi”.

Bobur bu o’rinda o’z otasi haqida yozar ekan, Umarshayx Mirzo juda himmatli, qo’li ochiq va ulug’ podshoh bo’lganligini qayd etadi. Doimo mulkchilikka qiziqishi bor edi, Bir necha marotaba Samarqand shahri ustiga yurush qilib qo’shin tortdi. Ba’zan g’alaba qozondi, ba’zan esa mag’lubiyatga uchradi. Ko’pincha

¹ Нурмонов А. Искандарова Ш. Узбек тили еа адабиёти журнаи. 1995-5-6.

murodisis yana ortga qaytdi. Qaynotasi yunusxon ekanligini yozadi. U Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyning naslidan deydi. Chig'atoyxonning yurtida bu paytda mo'g'ul xalqinig xoni o'sha edikim, mening ulug' otam bo'ladilar. Ular har safar kelganlarida viloyatlar berar edilar. Ammo u Umarshayx Mirzoning muddaosidek bo'lmas edi. Qaynotasi so'nngi marta kelganida Toshkent shahri Umarshayx Mirzining tasarrufida bo'lganligi qayd etilgan. Asarda muallif Toshkent haqidagi ta'riflari bilan o'z fikrini davom ettiradi. Toshkentni O'sha davrda yaratilgan kitoblarda "Shosh" yohud "Choch" deyilganini zikr etadi u. Qolaversa Toshkentning kamonlari ham mashhur bo'lgan deydi Bobur. O'sha davrdan tarix to'qqiz yuzi sakkiztagacha Toshkent va Shohruxiya viloyati Chig'atoy xonlarining tasarrufida bo'lganligi, bu yerlarni Zahiriddin Muhammad Boburning ona tomondan bobosi Yunusxonning to'ng'ich o'g'li – tog'asi Mahmudxonning qo'l ostida bo'lganligi yozib ketilgan. Umarshayx Mirzoning akasi Samarqand podshohi Sulton Ahmad mirzo va mo'g'ul ulusining xoni Mahmudxon Umarshayx mirzoning Andijon taxtini boshqarib kelayotganidan norozi edilar. Ular bir- birlari bilan o'zaro ittifoq tuzishib, Sulton Ahmad mirzo Mahmudxonni o'ziga kuyov qilib, Xojandning janubidan Sulton Ahmad va Shimolidan Mahmudxon Umarshayx mirzoning qal'asi ustiga qo'shin tortib kelishganini batafsil keltiradi Bobur shoh. Ammo Axxi qo'rg'oni baland jar ustida joylashgan, imoratlar ham jar yoqasida qurilgan edi. Bu hol dushanba kuni ramazon oyining to'rtida Umarshayx mirzo jordan kabutar va kabutarxona bilan uchib halok bo'lganligi yozilgan Bundan ko'rinib turibdiki, Boburning otasi kabitalarni sevib parvarishlovchi, qushlarga qiziquvchi kishi bo'lgan.

“Uch o'g'ul, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o'g'lonlardan uluq men- Zaxiriddin Muhammad Bobur edim; mening onam Qutluq Nigorxonim edi Yana bir o'g'ul Jahongir mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aning onasi mo'g'ulning tuman bekларidin edi, Fotima Sulton otliq. Yana bir o'g'ul Nosir Mirzo edi, onasi andijonliq edi, g'unchachi edi, Umid otliq. Mendin to'rt yosh kichik edi.

Bori qizlaridin ulug' Xozonda edi ,mening bila bir tuqon erdi mendin besh yosh ulug' erdi. Men Samarqandni ikkinchi navbat olg'onda bovujudkim Shayboniyxondek kishi birla Saripulda chiqib urush gilib oncha kim imkoni sa'y va extimolda taxsir qilmaduk ,nechuk kim maxalida mazkur bo'lg'usidir sikast topib kelib besh oy qaladorlik qildim , qaladorlik zabti estimoqi va sardorlikda taqsir bo'lmadi . Atrof va javonidagi podshoxlar va beklarni hech nab madat va muovanat bo'lmadi, mayus bo'luk solib chiqtim.

Ul fatarotta Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxonga tushub edi bir o'g'ul bo'lib erdi. Xurramshox otliq maqbul o'g'lon edi. Balx viloyatini anga berib edi otasi o'lganidin bir-ikki yil so'ngra tengri rahmatig'i bordi. Shox Ismoil o'zbekni Marvda bosqonda Xonzodabegim Marvda edi. Men va Muhammadiy ko'kaltosh ikov keduk begim va begimning yovug'idag'ilar tanimadilar. Bovujudkim, otimni aytim, ham mudattin so'ngra tanidilar.

Yana bir qiz Mehribonubegim erdi. Nosir Mirzo bila bir to'qq'on erdi mendin ikki yosh ulug' erdi.

Yana bir qiz Shahribonubegim erdi ,bu dag'i Nosir mirzo bila bir tuqq'on erdi mendin sekkiz yosh kichik edi.

Yana bir qiz Yodgor Sultonbegim edi onasi Og'a sulton otliq g'unchachi edi. Yana bir qiz Ruqiya Sultonbegim edi Qorako'zbekim derlar edi, ikkalasi mirzoning favtinidin so'ng bo'ldila. Yodgor Sultonbegimni Xamza Sultonning Abdullatif Sulton otliq o'g'ilga tushib edi. Men Hamza Sulton boshliq sultonlarni Xatlon viloyatida bosib hisorni olg'onda menga qotildi. O'shul fatorrata Ruqiya Sultonbegim Jonibek Sultong'a tushub edi bir ikki o'g'li bo'ldi, turmadi. Bu fursatlarda xabar keldikim' tengri rahmatig'a boribtur"².

Bobur shu o'rinda otasidan qolgan farzandlar haqida ham birma- bir to'xtalib ularga ta'rif beradi. Otasidan uch o'g'il, besh qiz qolgan. O'g'illarining eng kattasi Bobur bo'lgan. Onasi Qutlug' Nigorxonim. Bir o'g'li Jahongir mirzi Boburdan

² Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". -T., 1960.

ikki yosh kichik bo'lgan. Jahongirning onasi mo'g'ul beklarining qizi Fotima Sulton bo'lgan. Yana bir o'g'li Nosir mirzo bo'lgan. Uning onasi Andijonlik gulchi edi. Ismi Umid edi. Nosir Boburdan to'rt yosh kichik edi.

Bobur so'ngra otasining qizlari haqida ham batafsil to'xtaladi. Qizlaridan eng kattasi Xonzodabegim edi. Xonzodabegim Bobur bilan uning onasi bir bo'lib, u Boburdan besh yosh katta edi. Bobur Samarqandni ikkinch bor qamal qilganda chetdan na beklar, na mirzolar, va o'zining jogarlari unga yordam kuchlarini yubormaydilar. U shu o'rinda Shayboniyxon bilan Saripulda bo'lgan jangni ham yozib o'tadi. Opasi Xonzodabegim Shayboniyxonga turmushga chiqishga majbur bo'ladi va undan bir o'g'il dinyoga keltiradi. Uning ismi Hurramshoh edi. Zahiriddin Muhammad Bobur Jiyanini juda maqul bola bo'lganligini yozadi. Balx viloyatini unga berib edi. Ammo otasining vafotidan ikki yil o'tib Hurramshohni ham olloh o'z dargohiga oldi, - deya yozadi Bobur. Eron shohi shoh Ismoil o'zbeklar ustiga Marvda bostirib kelganda opasi Xonzodabegim Marvda bo'ladi. Bobur oradan o'n yil o'tib Mrvga Ismoilshoh huzuriga borai, ammo opasi uni tanimaydi. Bobur o'z ismini aytgandan so'ngra uni tanib oladilar.

Umarshayxning yana bir qizi Mehrbonubegim edi,- deydi muallif. Mehrbonu va Nosir mirzo bir onadan tug'ulgandirlar. U Boburdan ikki yosh katta bo'lgan. Yana bir qizi Shahrbonubegim edi. U ham Nosir mirzo bilan bir onadan tug'ilmash. Bobur mirzoba sakkiz yosh kichik edi. Yana bir qizi Yodgor Sultonbegim edi. Onasi Og'a Sulton ismni ayol edi. Yana bir qizi Ruqiya Sultonbegim edi. Onasi Mahdum Sultonbegim edi. Uni Qorako'zbekim derlar edi. U vafot etdi. Yodgor Sultonbegimni Boburning katta onasi Esan Davlatbegim saqlab qolgan. Andijon va Axsini Shayboniyxon bosib olish arafasida uHamza Sultonning o'g'li Abdullatif Sultonga uzatiladi. Ruqiya Sultonbegim Jonibek Sultonga turmushga beriladi, ammo ilar uzoq yashamaydilar.

“Boburnoma”da Bobur Onasining shaxsiyatiga ham alohida ta'rif keltiradi: “Qutlug' Nigorxonim erdi. Yunusxonning ikkinchi qizi. Sulton Mhmudxon va Sulton Ahmadxonlarning egachisi erdi.

Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslidandur. Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali ibn Muhammadxon ibn Hizr Xojaxon ibn Tug'luq Temurxon ibn Esan Bug'axon ibn Duvaxon ibn Baroqxon ibn Yesuntuva ibn Mutugon ibn Chig'atoy ibn Chingizxon.

Chu muncha ta'qib bo'ldi. Xonlarning avlodini tag'I mujg'ol Bila zikr qiladir. Yunusxon va Esan Buvaxon Vaysxonning o'g'lonlari edi. Yunusxon o'g'lonlari Ofoqxon va Jonboboxon edi. Yunusxonning onasi Turkistonliq qipchoq bekларidin Temurbek rivoyat qilg'on shayx Nuriddinbekning qizi yo nabirasi bo'lur. Yunusxonning egachisini Ulug'bek mirzo Abdulaziz mirzog'a olib erdi. Yunusxonning Esan davlatbegim otliq qizidn uch qizi bo'ldi. Boridin ulug' Mehr Nigorxonim erdikim, Sulton Abusaid mirzo O'g'li Ahmad Mirzog'a qo'lub edi. Mirzodin hech o'g'ul va qiz bo'lmadi. So'ngra fatarotta Shayboniyxong'a tushub erdi. Men Qobulg'a kelgonda SHoh Begim bila Samarqanddin Xurosong'a kelib, Xurusondin Qobulg'a keldilar.

Ikkinchi qizlari mening validam- Qutlug'Nigorxonim erdi. Aksar qazoqliklarda va fatarotlarda mening bilan bir edilar. Qobulni olg'ondin besh olti oy so'ngra tarix to'qquz yuz o'n birida tengri rahmatig'a bordilar.

Uchinchi qizi Xo'p Nigorxonim erdilar. Muhammad Husayn Ko'ragon dug'latg'a berib edilar. Bir qizi va bir o'g'li bo'lib erdi. Men Buxoro va Samarqandni olg'onda chiqmay qolib erdi. Sulton Saidxonning amakisi Said Muhammad mirzo Samarqang'a manga elchilikka kelganda anga qo'shulub bordi. Sulton Saidxon oldi. O'g'ul Haydar mirzo erdi.

Bobur Onasi haqida hikoya qilar ekan, Yunusxonning uch qizidan birinchisi- Mehr Nigorxonim, ikkinchisi o'zining onasi Qutlug' Nigorxonim va uchinchisi Xo'p Nigorxonim edi deb yozadi u. Katta onasi Esan Davlatbegimning to'ng'ich qizi Mehr Nigorxonim haqida so'z yuritir ekan, Mehr Nigorxonim Baridan kattasi edi, Sulton Abusaid mirzo uni To'ng'ich farzandi Ahmad mirzoga xotinlikka olib berdi, Ammo Mirzodan hech bir farzand bo'lmadi, Men Samarqandga kelganda u

kishi Xurosondan Qobul tomonga ketgan ekanlar deb yozadi. Xolasining baxti chopmaganligi ushbu ta'riflar orqali ayon bo'ladi. Bobur endi o'z onasi Qutlug' Nigorxonim haqida to'xtaladi. Onasining doimo u bilan birga bo'lganligini, taxtni boshqarishda ham buvisi va onasi unga davlat ishlarida bosh-qosh bo'lganliklarini yozadi. U hatto Qobulni egallaganga qadar qaysi shaharlarda bo'lgan bo'lsa onasi Qutlug' Nigorxonim uning yonida yurganini aytadi. Onasi Qobul ishg'ol etilgandan so'ng olti oy o'tib o'sha yerda vafot etganini yozadi. Esan Davlatbegimning uchinchi qizi Xo'p Nigorxonim haqida ham asarda ma'lumotlar beriladi.

“Boburnoma”da Boburning avlodlari ta’rifi. Zahiriddin Muhammad Boburning to'rt nafar o'g'li va olti nafar qizlari borligi tarixdan ma'lum. Ulardan eng kattasi Humoyun mirzo (1508), Komron mirzo (1509), Askariy (1512), Hindol (15180), qizlari: Gulbadanbegim, Ma'sumabegim, Gulrangbegim, Gulchehrabegim, Guldorbegim, Faxrinniso. Asarda Bobur farzandlariga nisbatan bir xilda mehr-muruvvat ko'rsatishi, ularning husnixati, tarbiyasi borasida, xatolik uchun qattiq-qattiq gaplar aytishi qayd etiladi. Humoyunning xasta bo'lib qolganini muallif quyidagicha bayon etadi: “Muhammad humoyun sanbalg'akim, aning joygiri erdi. Ruxsat berildi. Olti oygacha anda erdi. Zohiran ani yer va suyi xush yoqmasdi, Isitma tutar ekandur, bora- bora uzoqqa tortar, Toniki biz eshuttuk, farmon berildikim, dehlig'a keltirub. Dehlidan kemag'a solib keltirsinlarkim, hakimi hoziqlar ko'rub, dardig'a davo qilsunlar. Bir necha kun daryo yo'li bilan kelturdular va tabiblar har necha doru darmon berdilar. Yaxshi bo'lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug' kishi erdi. Arzg'a yetkurdikim, ushmundoq dardlarg'a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri taolo sihat bergay. Mening ko'nglimga berdikim, Muhammad Humoyun (ning) mendin o'zga yaxshi nimarsasi yo'q. Men o'zim tasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsun. Xoja halifa o'zga muqarrablardinarzg'a tegurdilarkim, Muhammad Humoyun shifo topar, siz bu so'zzi nechun tilingizga keltirasiz. G'araz budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas o'shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub erdi. Muhamad Humoyung'a niyat qilib erdingiz, tasadduq qilmoq

kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning evaziga nechuk bo'lg'ay. Men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkul bo'libtur. .. Va andin o'tubturkim, men aning betoqatlig'ini toqat kelturg'ayman,. O'shal holatda kirib, uch qatla boshidan o'rgulib dedimkim, Men ko'tardim, har ne darding bor, O'shal zamon men og'ir bo'ldim. Ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lib qoldi. Men noxush bo'lib yiqildim. A'yoni davlat va arkoni mamlakatni charlab, bay'at qullqrini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasib qildim. Va taxtni anga topshurdim. Va Xo'ja Xalifa va Qnbar Alibek va Turdibek va Hindubek va o'zga xaloyiq ham bu nasoyixda bor erdilar. Borisi qabul qilib, band bo'ldilar. Musavvidi avroq aytadurkim, to'qquz yuz o'ttiz yettida mujodil avval oyining oltisida chahor bog'idakim, O'shul podshoh o'z qo'li bilan obod qilib erdi. Holi mutag'g'ayir bo'lib bu olami bevafoni padrud qildi.

Va fuzaloyi ahdkim, tarix va marosi vaqasoid va tarokib ayttilar, az on juma Mavlono shuhobmuammoi, bu misrani tarix topdi: "Humoyun bud vorisi mulki vay". Va maholdurkim, ul podshohi qobulning yaxshilig'larini aytgan bilan va bitgan bilan tugangay, lekin mujmal bulkim, sekkiz sifati asl aning zotig'a mutassil erdi: birisi bulkim, najhati baland erdi; ikkimchisi, himmati anjumand erdi; uchimchisi viloyat olmog', to'rtimchi viloyat saqlamog'; beshimchisi, ma'murlug'; oltinchisi, rafohiyat niyati tengri taolo bandalarig'a; yettinchisi, cherikni ko'nglini qo'lg'a olmoq; sekkizimchisi, adolat qilmoq.



Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu asarda sevimli to'ng'ich o'g'lining og'ir xastalikka chalinib qolganini alohida bayon qiladi. Uning yozishiga ko'ra, Humoyun Badaxshonda og'ir betob bo'lib qoladi. Ukasi Hindol Uni dehliga Kemada uzoq yo'l bosib keltiradi. O'zi esa akasining vazifalarini ado etadi. Bu o'rinda aka- ukalar o'rtasidagi samimiy munosabat ham yaqqol namoyon bo'ladi. Humoyun mirzo Dehli shahriga keltirilgandan so'ng otasi uning huzuriga jamiki tabiblarni chorlaydi. Eng bilimli tabiblar uning xastaligini aniqlay olmaydilar. Biroq Mir Abulqosim ismli mashhur shayx Boburga so'nggi yo'lni ko'rsatadi. Uning aytishicha Otasi Humoyun uchun Dunyodagi eng sevimli narsasidan katta boyligidan, dunyoning boyligidan voz kechsa, farzandi albatta oyoqqa turishini aytadi. Bobur shoh farzandi uchun jonini ham berishga tayyor ekanligini aytadi. Ismoil bilan bo'lgan jangda qo'lga kiritgan olmosni sadaqa qiladi, Humoyunning boshidan uch marta aylanib, "har ne darding bo'lsa men olay, olloh meni shu dardga giriftor etsin" qabilidagi gaplarni aytib o'g'lining sog'ayib ketishini

xudodan yolvorib so'raydi va shu ondayoq u o'zin nohush sezib yerga yiqiladi. Farzandi Muhammad Humoyun esa oyoqqa turadi.

Davlat arboblari, barcha ulamolar Boburning oldiga yig'iladilar. O'zaro maslahatlashib Humoyunni taxt vorisi etib unga tojni topshiradilar. Bu voqea barchaga birgek ma'qul tushadi. Bobur shu o'rinda noma'lum xattot Mavlono shuhob haqida yozib uning humoyun haqidagi bir og'iz jumlasini keltiradi. "Humoyun mulkning merosxo'ridur"³

Bobur Humoyunning sakkizta hislatini sanab o'tadi: birinchisi, xusnixati go'zal edi; ikinchisi, himmati baland edi; uchinchisi, jang qilish bobida unga hech kim teng kelmas edi; to'rtinchisi, viloyat saqlamoq ya'ni davlatni boshqarishni yaxshi uddalar edi; beshinchisi, ma'muriy ishlarda ustasifarang edi; oltinchisi, ollohning bandalariga rahimli, himmatli edi; yettinchisi, o'zgalarning qanday ko'nglini xushlashni bilar edi, hech kimning ko'nglini qoldirmas edi,; sakkizinchisi adolatli edi. ⁴

U yana Humoyun haqida quyidagi fikrlarni eslatib o'tadi: " Va fazilat bobida kamligi yo'q erdikim, nazm va nzsar va turkey va forsiyni bebadal aytur edi. Alal husus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdur va masnaviy kitobi ham borkim, oti mubayyundur. Til bilur dono xalq orasida aningdek latoyif yoqtur. Va Xoja Ahror aytgan risolakim aning oti "Volidiya"dur. O'shal podshoh nazm qilibdur. Ushbu kitobkim"Boburiya"dur. Bayramxonning o'g'li Mirzoxong'a buyurdilarkim, turkiydin forsiyg'a kelturdikim, turkey bimog'on xaloyiqqa oson bo'lg'ay. Ul podshoh musiqiy ilmidin ham xabari bor erdi".

Bobur mirzo o'g'li Hunoyunnignfazilatlari haqida yozar ekan uning fazilat bobida also kamchiligi yo'qligini, nazm va nasrda ijod bilan shug'ullanishini, hamda turkey tilda yozilgan devoni borligini , unda eng toza mazmunlar jamlanganini, yana uning masnaviylardan iborat kitobi borligini hamda kitob "Mubayyin" deya nomlanishini qayd etadi.

"Ul podshohg'a tengri to'rt o'g'il va uch qiz karomat qilib erdikim, o'g'lonlar: Muhammad Humoyun podshoh va Komron mirzo va Mirzo askariy va Mirzo Hindol erdilar. Va qizlar: Gulrangbegim va Gulbadanbegim va Gulchehrabegim erdilar. Ushbu uch qiz bir onadin erdilar". Yuqorida keltirilgan ta'rifga ko'ra Bobur avlodlarining ismlari tartib bilan nomma- nom keltirib

³ З.М. Бобур. Бобурнома. Тошкент;- "Юлдузча" нашриёти. 1990.

⁴ Z.M.Bobur "Mahrami asror topmadim". T., 1998.

o'tilgan. Boburning farzandlariga bo'lgan cheksiz muhabbati, ayniqsa, Humoyun mirzoga bergan ta'rifida Humoyunni o'ziga munosib farzand deya ma'qul ko'radi. Humoyunni davlatni oqilona va adolat bilan boshqarishiga katta ishonch bildiradi. Uning farzandlariga bo'lgan otalik mehri shunchalar kuchliki, hatto farzandi Humoyun mirzoni o'z jonidan ham afzal ko'radi. Mirzo Komronga ham ishonch bilan Qobulni boshqarishdek ulkan vazifani topshirganini qayd etadi. Boburning avlodlari ilm hamda ijod bilan shug'ullanuvchi yetuk shaxslar bo'lib yetishadi.

Ba'zi notanish so'zlar lug'ati:

- 1 **Ehtimom** - g'ayrat, urinish.
- 2 **Somon topmoq** - yo'lga tushmoq, tartibga kelmoq.
- 3 **Ul viloyatlar** -Farg'ona vodiysi ko'zda tutiladi.
- 5 **Mug'laq** - mavhum, tushunarsiz.
- 6 **Tasadduq qilmoq** - sadaqa qilish, bag'ishlash.

Boburning qisqacha shajarasini shu tariqa ko'rsatish mumkin:

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma”ni o'qigan kitobxon ilm – fanning juda ko'p sohalari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar olishi bilan birga, Zahiriddin Muhammad Boburning nihoyatda murakkab, ayni paytda sarkarda sifatida mard – jasur, inson sifatida jozibador, ota sifatida farzandlari uchun mehribon – fidoiy qalbning porloq siymosini yaqqol tasavvur qiladi. Shu jihatdan Hindistonning atoqli jamoat arbobi Javoharlal Neruning “Hindistonning kashf etilishi” asarida

Bobur haqida aytgan quyidagi so'zlarini keltirish o'rinlidir: "Bobur dilbar shaxs uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan xuzur qilishni yaxshi ko'rardi".

Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallaydi. "Boburnoma"da keltirilgan ma'lumotlar ichida katta ahamiyatga ega bo'lgan muallifning shajarasidir. Chunki kitobxon temuriyzodar haqidagi zarur ma'lumotlarni shu asardan oladi. "Boburnoma"da keltirilgan har bir shaxs tarixiy fakt asosida, hech qanday o'zgartirishlarsiz, bo'rttirishlarsiz, ortiqcha baholarsiz tarzda asarga kiritilgan. Boburning ona tomondan ajdodlari, ota tomondan ajdodlari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Muallif ularni ketma-ket joylashtirib ismlarini keltiradi, zarur hollarda ularga ta'rif berib, ular bilan bo'g'liq har bir voqeaga urg'u berib o'tadi. Umarshayx mirzo, Qutlug' Nigorxonim, Hamda Boburning farzandlarini alohida boblarda ta'riflaydi.

Xullas, Boburning shaxsiyati, shajarasi, va avlodlarini o'rganish yo'lida ushbu nodir asar eng katta tarixiy, yozma manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.M.Bobur "Mahrami asror topmadim". T., 1998.
2. Z.M.Bobur "Boburnoma". T., 1989.
3. V.Abdullayev. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1976.
4. I.Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. T., 1990.

5. Ma`ruza matnlari. II qism. N-2000.
6. I.Haqqul. “Davlatqa yetib mehnat elin unutma”. “Ishonch” gazetasi.
2006-yil 14-fevral.
7. Internet.www.tuit.uz.
8. Нурмонов А. Искандарова Ш. “Узбек тили ва адабиёти” журнали.
1995. 5-6-сонлар .
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. -T., 1960.
10. Bobur hayoti va ijodi. Risola. Toshkent- 2012.
11. З.М. Бобур. Бобурнома. Тошкент;- “Юлдузча” нашриёти. 1990.
12. Po’latjon domla Qayumiy. Mumtoz so’z, Tanlangan asarlar, X jild,
Toshkent;-2009.